



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRINING BUYRUG'I

20 25 yil " 14--fevral

№ 43

Toshkent sh.

**O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirining 2023-yil 3-noyabrdagi
"Dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikani davlat ro'yxatidan o'tkazish
bilan bog'liq bo'lgan tartiblarni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi
277-son buyrug'iga qo'shimcha va o'zgartirish kiritish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasining "Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida"gi Qonuni hamda Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-martdagi 213-son qarori bilan tasdiqlangan Dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikani davlat ro'yxatidan o'tkazish hamda ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasi berish tartibi to'g'risidagi nizomga muvofiq **buyuraman:**

1. O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirining 2023-yil 3-noyabrdagi "Dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikani davlat ro'yxatidan o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan tartiblarni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 277-son buyrug'iga quyidagi qo'shimcha va o'zgartirish kiritilsin:

1-bandning to'rtinchi xatboshidagi "jalb etiladigan mustaqil ekspertlar ro'yxati" so'zlaridan keyin "va ularga to'lanadigan haq miqdorlari" so'zlari bilan to'ldirilsin;

3-ilovaning izoh qismi quyidagi mazmundagi xatboshlari bilan to'ldirilsin:

"jalb etilgan mustaqil ekspertlar tomonidan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikaning har bir ro'yxatdan o'tkazish hujjatlari ekspertizasi bo'yicha taqdim etilgan xulosalar uchun quyidagi miqdorlarda haq to'lanadi:

fan doktori (Doctor of Science) (yoki xorijiy mamlakatlarda unga tenglashtirilgan daraja) va professor ilmiy darajasiga ega shaxslarga – bazaviy hisoblash miqdorining 100 foizi;

fan nomzodi yoki falsafa doktori (PhD) (yoki xorijiy mamlakatlarda ularga tenglashtirilgan darajalar) va dotsent ilmiy darajasiga ega shaxslar uchun – bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi;

ilmiy darajaga ega bo'lmagan shaxslar uchun – bazaviy hisoblash miqdorining 30 foizi.”

2. Mazkur buyruq ijrosini nazoratini o'z zimmamda qoldiraman.

Vazir



A. Xudayarov